



## SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE BUKHARA EMIRATE IN WRITTEN SOURCES OF THE LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES

*Fakhriya Abdurasulova*

*PhD student*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [Abdurusulova.faxriya@mail.ru](mailto:Abdurusulova.faxriya@mail.ru)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Bukhara Emirate, analysis, manuscript, historiography, socio-political life, culture, scientists, scientific, objectivity.

**Received:** 04.04.25

**Accepted:** 06.04.25

**Published:** 08.04.25

**Abstract:** Bukhara has long been known and famous as one of the centers of science and enlightenment in the ancient East. Bukhara is a land where national urban planning traditions were formed, religious and secular knowledge developed, many encyclopedists, poets, historians, philosophers, jurists lived and worked, and is famous for its enlightened thinkers. Among the thinkers who lived and worked in Bukhara during the Emirate, there are many enlightened, patriotic scholars and scholars who were considered one of the progressive figures of their time with their political and legal views and intellectual intelligence. They made an invaluable contribution to enriching the political, spiritual, and legal thinking of our people in their time. In the study of historical science, in particular, manuscript sources, young researchers are looking at the history of our country, the socio-political life, and culture of the Middle Ages from a new perspective, without denying or diminishing the achievements of scholars. One of the important tasks facing modern historiography is the scientific, historical, and factual basis of research, which is based on the principles of objectivity.

## XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIGA OID YOZMA MANBALARDA BUXORO AMIRLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI

**Faxriya Abdurasulova**

Tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [Abdurasulova.faxriya@mail.ru](mailto:Abdurasulova.faxriya@mail.ru)

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, tahlil, qo'lyozma, tarixshunoslik, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniyat, olimlar, ilmiy, xolislik.

**Annotatsiya:** Buxoro ko'hna Sharqda qadimdan ilm-ma'rifat markazlaridan biri sifatida ma'lum va mashhurdir, Buxoromilliy shaharsozlik an'anaları şakllangan, diniy va dunyoviy bilimlar rivojlangan, ko'plab qomusiy olimlar, shoirlar, tarixchilar, faylasuflar, faqixlar yashab ijod etgan, o'zining ma'rifatparvar mutafakkirlari bilan mashhur zamin. Amirlik davrida Buxoroda yashab ijod etgan mutaffakirlar orasida o'zining siyosiy – xuquqiy qarashlari, bilim zakovati bilan o'z zamonasining ilg'or qishilaridan biri hisoblangan ma'rifatparvar, vatanparvar olim u lamolar talaygina. Ular o'z davrida xalqimizning siyosiy, ma'naviy, xuquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo'shganlar. Tarixshunoslik, xususan, qo'lyozma manbalarni o'rganishda yosh tadqiqotchilar yurtimiz tarixi, o'rta asrlar davri ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyatiga yangicha nuqtai nazardan, allomalar erishgan yutuqlarni inkor etmagan va kamaytirmagan holda qaramoqda. Zamonaviy tarixshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri tadqiqotning ilmiy, tarixiy va haqiqatga asoslanganligi bo'lib, u xolislik tamoyillariga asoslanadi.

### ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ КОНЦА XIX-НАЧАЛА XX ВЕКА

**Фахрия Абдурасулова**

докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [Abdurasulova.faxriya@mail.ru](mailto:Abdurasulova.faxriya@mail.ru)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Бухарский эмирят, анализ, рукопись, историография, общественно-политическая жизнь, культура, ученые, наука, объективность.

**Аннотация:** Бухара издавна была известна и славилась как один из центров науки и просвещения на Древнем Востоке. Бухара – край, где формировались национальные традиции

градостроительства, развивались религиозные и светские знания, жили и творили многие энциклопедисты, поэты, историки, философы, правоведы, славится своими просвещенными мыслителями. Среди мыслителей, живших и работавших в Бухаре во времена эмирата, было много просвещенных, патриотически настроенных ученых и мыслителей, которые по своим политическим и правовым взглядам, а также интеллектуальной проницательности считались одними из самых прогрессивных деятелей своего времени. Они внесли неоценимый вклад в обогащение политического, духовного и правового мышления нашего народа в свое время. Изучая историческую науку, в частности рукописные источники, молодые исследователи по-новому смотрят на историю нашей страны, общественно-политическую жизнь и культуру Средневековья, не отрица и не принижая достижений ученых. Одной из важных задач, стоящих перед современной историографией, является обеспечение того, чтобы исследование было научным, историческим, основанным на истине и базировалось на принципах объективности.

**Kirish.** Mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixi har tomonlama xolisona va ilmiy o‘rganila boshlandi. Ayniqsa, o‘zbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tutgan o‘rnini ochib berishga katta e’tibor berilmoqda. Shubhasiz, o‘zbek davlatchiligi an’analarining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim o‘rin egallagan davrlardan biri o‘zbek xonliklari davri hisoblanadi. Muhtaram yurtboshimiz shunday deydi: Mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q [1]. Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning ochib berishda muhum sanaladi. Tarixchi olimlar, yosh izlanuvchilarining tarixshunoslik sohasida, ayniqsa, qo‘lyozma manbalarni o‘rganish borasida olimlarning qilgan xizmatlarini inobatga olgan holda mamlakatimiz o‘rta asrlar davri tarixini, ijtimoiy-siyosiy hayotini, madaniyatini, yangicha nuqtai nazardan, haqqoniylar, tarixiylik, ilmiylik, obyektivlik tamoyilari asosida o‘rganish bugungi tarixchi olimlar oldida turgan muhim faoiyatlatdan birdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov bir guruh tarixchilar va yosh izlanuvchilar bilan uchrashuvda mazkur masalaga jiddiy muhokama etilib, mamlakatimizda tarix fanini

rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan edi. “Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur” degan edi Prezidentimiz shu uchrashuvda [2]. Bugungi kungacha tadqiqotchilar tomonidan o’zbek amirlik tarixini o’rganishga ko’plab marotaba murojaat qilingan va xonlik tarixining turli muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar qilingan bo’lsada, hozirgacha xonliklar davri tarixining barcha masalalari to’lig’icha tadqiq qilib bo’lingan deb bo’lmaydi. Turli davrlarda yaratilgan amirlik tarixini aks ettiruvchi asarlarda mualliflarning masalaga turlicha yondashuvlari fikrlarning va xulosalarning ham turlicha bo’lishiga olib kelgan. Ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik va xolislikka asoslanilgan eng to’g’ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxasislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Ma’lum bir davr tarixini yoritib berishda, albatta, qo’lyozma asarlarga tayanilgan xolda fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur maqolada tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy, statistik, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Buxoro amirligi tarixida uzoq davom etgan mang’itlar sulolasini hukmronligi davrini o’rganishda muayyan tadqiqotlar olib borish nafaqat tarixchilar, balki arxitektura, falsafa, xuquqshunoslik kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Amirlik davrida Buxoroda yashab ijod etgan mutaffakirlar orasida o’zining siyosiy – huquqiy qarashlari, bilim zakovati bilan o’z zamonasining ilg’or kishilaridan biri hisoblangan ma’rifatparvar, vatanparvar olimu ulamolar bisyor. Ular o’z davrida xalqimizning siyosiy, ma’naviy, xuquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo’shganlar.[3] Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manbalardan saroy tarixchilari va zamondoshlari tomonidan ham yozilgan. Buxoro amirligi tarixi bugungi kunga kelib jahon ilmiy markazlarida keng o’rganilmoqda. Xususan, mang’itlar sulolasining taxtga kelishi, ushbu sulola hukmronlik qilgan paytda Buxoroda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va ularning amaliy natijasiga oid bir qator izlanishlar tadqiqotchilar tomonidan izlanmoqda. Shu yo’nalishda mang’itlar sulolasini davri tarixini yoritgan, ayniqsa, mang’itlar davrida Samarqand va Buxoro shaharlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni o’zida aks ettirgan Jumaquli Xumuliyning “Tarixi Xumuliy” va bu davrda yozilgan boshqa tarixiy asarlar ma’lumotlari asosan mang’itlarning Buxoro hokimiyatini egallashi xususidagi ma’lumotlarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilamiz. Jumladan tarixchi olimlardan Muhammad Vafoiy Karminagiyning “Tuhfat ul-xoniy” yoki “Tarixi Rahimxoniy” asari bo’lib, u Buxoro amirligining 1722-1782 yillar oralig’idagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o’z ichiga oladi. Tadqiqot olib borayotgan davrimizda yozilgan bu asar orasida Qozi Vafo Karminagiyning “Tuhfat ul-xoniy” asari o’zining murakkabligi xronologik ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Bu

asraning muallifi va uning ilmiy faoliyatini o‘rgangan manbashunoslar A.A. Semenov[4], N.D. Mikluxo Maklay[5] kabi tarixchilar ikkita muallifga nisbat berganlar. Birinchi qismida tarixiy jarayonlar Muhammad Rahimbiy vafotigacha (1758) bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Asarning ikkinchi qismi 1768/69 davrgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi. Vafotidan so‘ng Olimbek valadi Niyozqulibek domulla asarni 1782-yilgacha bo‘lgan davrgacha davom ettirib qo‘yadi.

Muhammad Ya’qubning “Gulshan-ul mulk” asari ham mang‘itlar sulolasining dastlabki davri bo‘yicha muhim manbadir. Asarda asosiy e’tibor mang‘itlar davrini yoritishga bag‘ishlangan. Buxoro amirligi haqidagi navbatdagi asar “Tarixi Amir Haydar” bo‘lib u XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida o‘tgan buxorolik olim Mullo Ibodullaning asaridir. Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya”, “Dahmayi shohon”, Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiyuning “Toju tavorih”, Mirzo Sodiq Munshiyuning “Mang‘it hukmdorlari tarixi” kabilar shular jumlasidandir. Muhammad Mir Olim Buxoriyning “Fatxnomayi sultoniy” asari ham mang‘itlar tarixi bo‘yicha muhim asarlardan biridir. Ushbu asarda amir Shohmurod (1785-1800) davridan to Nasrullo hukumronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Yana bir buxorolik tarixchi Mirzo Shams Buxoriy bo‘lib, u ajdodlari izidan borib saroyda munshiylik qilgan. U fors-tojik tilida “Bayoni ba’zi havosidoti Buxoro, Qo‘qon, Qoshg‘ar” asarini yozgan. Albatta, har qanday davlatning kuchi uning lashkari bilan belgilanadi. Bu borada Buxoro amirligi qo‘sish salohiyati ham Xiva va Qo‘qon xonligi kabi o‘ziga xos tarzda shakillangan edi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan tarixnavislardan Mirzo Salimbek, Sharifjon Mahdum Sadri Ziyo, Muhammad Ali Baljuvoniy o‘z asarlarida Buxoroning mang‘itlar davri ijtimoiy-siyosiy hayotiga oida qimmatli ma’lumotlarni keltirib, o‘zlaridan oldingi mualliflarning ilmiy an’alarini davom ettirganlar hamda mang‘itlar sulolasi tarixinining o‘ziga xos jihatlarini ochib bergenlar. Mirzo Salimbek 1850-yilda Buxoro amirigining boy oilalaridan birida tavallud topgan. Uning hayoti va faoliyati amirlikning yuqori lavozimlaridan boshlangan msiol uchun 1884-1885 yillar davomida Turkiston general-gubernatorligida Buxoroning vakili sifatida faoliyat olib brogan qolaversa, tuman amlokdori, shahar mirshabi, bir qancha viloyatlar hokimi, bosh zakotchi bo‘lib ishlagani uning ijtimoiy hayotda faolligidan isbotdir. Mirzo Salimbek bir qancha tarixiy asarlar muallifi “Kashkuli Salimiy”, “Jome-ul-gulzor”, “Tarixi Salimiy” shular jumlasidandir. “Tarixi Salimiy” 1917-1920 yillarda yozilgan. Asarni sharqshunos olim N.Norqulov chuqur o‘rganib nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Asarning 1860-1920-yillardagi voqealari o‘zining boshqa asrlardan origillagigi va ma’lumotlarga boyligi bilan farq qiladi. Amir Muzaffar davri voqealari hodisalari Buxro-Qo‘qon, Buxoro-Rossiya munosabatlari

amirlikning ma'muriy huddiy tuzilishi, ijtimoiy ahvoli haqida qimmatli ma'lumtlar keltirilgan. Asarda tarixiy voqealardan va hikoyalardan ham keltirildi. Jo'yboriylar to'g'risidagi hikoyatlar ham shu asardan joyolgan. Amir Abdulahad, Amir Olimxon hukmronlik davri, Mirzo Nasrullo qo'shbegi, jadidchilik harakatlari, bolsheviklar harakatlari tarixiy-badiiy jihatdan keng yoritilgan [6]. Mirzo Salimbek Mirzo Nasrullo qo'shbegi faoliyatiga baho berganda uning salbiy jihatlarini bir qancha sanab o'tadi. Uning jadidlarni mahfiy ravishda qo'llab quvvatlaganligini, ularning g'oyasiga ergashganligini, amirni ham ko'p bor chalg'itganligini salbiy tanqid qiladiyrihohligi. Mirzo Salimbek amir Olimxonga bo'lgan sadoqati va xayrihohligini yashirmaydi. Fayzulla Xo'jayevning esa jadidchilik faoliyatiga salbiy munosabatda bo'ladi va uni fitnachilikda ayblaydi.[7].

**Muhokama.** Buxoro amirligida yashab ijod etgan mutafakkirlar orasida o'zining siyosiy-ijtimoiy qarashlari, bilan o'z davrining ilg'or kishilaridan bo'lgan olim-u fuzalolar, ulamolar bisyordir. Ana shunday shaxslardan o'zining "Risola, yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asari bilan tanilgan Ahmad Donishdir [8]. Ahmad Donish asarida ma'rifatparvar g'oyalari, siyosiy-huquqiy qarashlarini amirlik ijtimoiy-siyosiy voqealari hoidalarini xolisiona yoritgan olimdir. Ahmad Donish Buxoro amirligi va unda hukmdor bo'lgan amirlarning tarixi masalalariga chuqur e'tibor qaratgan. Ahmad Donishning "Buxoro mang'it amirlarining muxtasar tarixi" va boshqa bir qator asarlari bor. Bu tarixiy asar shak-shubhasiz Buxorodagi mang'itlar hukmronligi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda asosan so`nggi mang'it hukmdorlari tarixi yoritiladi. Muallif bu sulolaning taxtdan ketishini mas`uliyatsizlik deb izohlaydi. Asarda asosiy e'tibor amir Muzaffar va Amir Abdulahad hukmronligi davrlariga e'tibor qaratilgan. Asar muallif bevosita o'zi guvoh bo'lgan voqealarini bayon etadi. Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo va asosan Jizzax va Samarqandning egallanishi kabi masalalarni asarda alohida yoritilgan. Asarda amirlik hukmdorlarining jaholat va g'aflat domiga botishi, ma'suliyat va hushyorliklarini yo'qatayotganliklarini oqibatida amirlik sekin astalik bilan o'z mustaqilligini yo'qotib borayotganligi tarixiga bag'ishlangan. Tarixchi turli tanqid va tazyiqlardan qo`rqmay ushbu ma'lumotlarni keltirishi uning mazkur davrdagi tarixni haqqoniy bayon qilganligi bilan ajralib turadi. Ahmad Donish ilmiy faoliyati va merosini o'rgangan tarixchi tadqiqotchilarining aytishlaricha Buxoro tarixiga oid qo'lyozma asarlar sovet davrida L.M.Yepifanova, A.V.Vildenanova, A.R.Muhammadjonov, O.A.Suxareva tomonidan, mustaqillik yillarida esa, Sh.X.Vohidov, D.Sh.Atadjanova, R.E.Xoliquova, L.P.Muhammadjonova, F.B.Ochildiyev, A.B.Xolikulov [9,10,11] kabi olimlar tomonidan tegishli mavzu doirasida tadqiq etilib ilmiy muoamalaga kiritilgan. Buxoro amirligi hukumdonlari ham xonlik tarixni, ayniqsa, o'zlarining hukumronlik davri tarixini yozib qoldirishga befarq emas edilar. Garchi bu masala

Xiva xonligidek izchillikda amalga oshirilmasada, deyarli xar bir hukumdar davrida uning topshirig'i bilan yoki unga xushomad tariqasida yoki mutloqo ixtiyoriy, shaxsiy tashabbus asosida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan. Ularning mualliflari orasida sadoqatli amaldorlar, voqenavislar, amir xonadoniga mansub vakillar, ularning farzandlari ham bor edi. Amir Olimxonning farzandlaridan biri Sayyid Mansur Olimiy tomonidan yozilgan "Buxoro – Turkiston beshigi" nomli kitobi ham katta ma'lumotlar beradi. Bu adabiyot 1996-yil Turkiyada chop etilgan. Adabiyotda Turkistonning arablar tomonidan istilo qilinish davridan to XX asr 20-yillarigacha bo'lgan tarix o'z aksini topgan. Asosiy e'tibor mang'itlar sulolasiga davriga qaratilgan. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy tarixini o'rghanish va taxlil etishda S. Ayniy tomonidan yaratilgan asarlar ham asosiy o'rinni egallaydi. Bu xususida, ayniqsa uning „Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar“ asari alohida e'tibor talab qiladigan noyob asarlar qatoriga kirgizamiz. Chunki, aynan mana shu asar Buxoro inqilobi tarixiga atalib yozilgan ilk asarlardan biri hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, S. Ayniy tomonidan yaratilgan asarlarning deyarli barchasi tarixiy-memuar asarlar hisoblanadi. Zero, shuning uchun uam ular hozirgi kunda Buxoro tarixini o'rghanish uchun memuar asar, qolaversa manba sifatida alohida o'rinni tutadi. Amirlikning turli davrlarida yaratilgan tarixiy asarlarda mualliflarning masalaga turlicha yondoshuvlari fikrlarning va xulosalarning ham turli xil bo'lishiga sabab bo'ladi. Tarixiy asarlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslangan eng muqobil bo'lgan xulosani chiqarish bugungi kun tadqiqotchilar oldida turgan muhum masalalardan biri hisoblanadi.

**Xulosa** Mustaqillik yillarda yurtdoshlarimizning o'lmas tarixiy merosi xalqimizga qaytarildi va tariximizning noma'lum sahifalari ochildi. Bizning vazifamiz esa bu kabi asarlarni tadqiq etib mamlakatimiz tarixini ochilmagan sahifalarni o'rghanishdan iboratdir. Jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatimizning tarixini o'rghanish, davlat arboblarimiz hamda muttafakkirlarimizning boy ilmiy-ijodiy hayotini tahlil qilib yoritish bilan bog'liq izlanishlarga mustaqilligimiz yillarda katta e'tibor qaratilib imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Shu jihatdan olganda, milliy davlatchiligidan tarixida alohida o'rinni tutadigan Buxoro amirligi davrini xolisona va obyektiv tarzda o'rghanish borasida ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

#### Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

- Sh.M.Mirziyoev. 2018 yil 15 iyundagi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazining qurilishi jarayonidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/2208>
- Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 24 25.

3. Бобоев Ҳ., Хидиров З. ва б. Ўзбек давлатчилиги тарихи.(II китоб). Т., 2009, Б.179.
4. Семенов А.А. Каталог. I. №101. Краткий каталог суфийских произведений.-С.97. №959.
5. Миклухо-Маклай Н.Д. Описание таджикских и персидских рукописей Института востоковедния. М., Л., 1955
6. Арандаренко Г.А. Достуги в Туркестане. 1874-1889.- Спб., 1889. С.535
7. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. – Тошкент, 2009.
8. А. Дониш. История мангитской династии. Дониш 1967.
9. Холикулов, А. (2024). Геополитическая обстановка в середине XVIII-начале XIX века и место Бухарского эмирата в ней. *Общество и инновации*, 5(3), 15-26.;
10. Khalikulov, A. (2022). Some comments about the place of the Bukhara emirate in the geopolitical situation at the beginning of the 19th century. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 11-20.
11. Холикулов, А. (2022). Бухоро амирлигига расмий қабул маросимлари хусусида айрим мулоҳазалар. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 350–355.